



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
<i>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna</i>	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish	15
<i>Elmanov Abbos Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich</i>	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli	19
<i>Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
<i>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	28
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati.....	33
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi	37
<i>Davlatova Zebo Haydarovna</i>	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari	40
<i>Ochilova Farida Baxriddinovna</i>	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari.....	44
<i>Qo'chqarova Oysha Oltibayevna</i>	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
<i>Sevara Mamatkarimova</i>	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
<i>Курбанова Шайра Исмаиловна</i>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari.....	63
<i>Muminova Feruza Farxodovna</i>	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati.....	70
<i>Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	74
<i>Saidova Dilnoza Maripovna</i>	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
<i>Дмитрий Валерьевич Пупонин</i>	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям	82
<i>Муксинова Динора Азаматовна</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti	87
<i>Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi</i>	



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQA MASHG'ULOTLARI ORQALI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

UDK: 373.3:78:37.015.3

Muminova Feruza Farxodovna

Xalqaro Nordik Universiteti, Pedagogika yo'nalishi 2-kurs magistranti



Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini musiqa mashg'ulotlari orqali rivojlantirish metodlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda musiqa ta'limining bolalarda tasavvur, mustaqil fikrlash, improvizatsiya, emotsional idrok va ijodiy ifoda ko'nikmalarini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Maqolaning maqsadi - boshlang'ich ta'lim jarayonida musiqiy faoliyatni kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi metodik vosita sifatida asoslashdan iborat.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-pedagogik tahlil, metodik modellashtirish va kuzatish metodlaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, musiqa mashg'ulotlarida qo'shiq kuylash, ritmik harakatlar, musiqiy improvizatsiya, tinglash faoliyati hamda guruhli ijodiy topshiriqlar kreativ fikrlashni rivojlantirishda samarali metodlar hisoblanadi. Muallif tomonidan boshlang'ich sinflar uchun musiqiy-kreativ mashg'ulotlarni tashkil etish modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, musiqa mashg'ulotlari, kreativ fikrlash, ijodiy tafakkur, musiqiy improvizatsiya, ritm, qo'shiq kuylash, pedagogik metodlar, o'quvchi faolligi, estetik tarbiya.

Abstract: This article analyzes methods for developing creative thinking skills among primary school students through music lessons. The study highlights the pedagogical potential of music education in fostering imagination, independent thinking, improvisation, emotional perception, and creative expression in children. The purpose of the article is to justify musical activity as an effective methodological tool for developing creative thinking in primary education.

The research employs theoretical analysis, comparative pedagogical analysis, methodological modeling, and observation methods. The findings indicate that singing, rhythmic movement, musical improvisation, listening activities, and group creative tasks are effective approaches to enhancing creative thinking. The author proposes a methodological model for organizing music-based creative activities in primary school.

Key words: primary education, music lessons, creative thinking, creative cognition, musical improvisation, rhythm, singing, pedagogical methods, student activity, aesthetic education.

Аннотация: В данной статье анализируются методы развития навыков креативного мышления у учащихся начальных классов посредством музыкальных занятий. Раскрывается педагогический потенциал музыкального образования в формировании воображения, самостоятельного мышления, импровизации, эмоционального восприятия и творческого самовыражения детей. Цель статьи заключается в обосновании музыкальной деятельности как эффективного методического средства развития креативного мышления в начальном образовании.

В исследовании использованы теоретический анализ, сравнительно-педагогический анализ, методическое моделирование и наблюдение. Результаты показывают, что пение, ритмические движения, музыкальная импровизация, слушание музыки и групповые творческие задания являются эффективными методами развития креативного мышления. Автором предложена методическая модель организации музыкально-креативных занятий в начальных классах.

Ключевые слова: начальное образование, музыкальные занятия, креативное мышление, творческое мышление, музыкальная импровизация, ритм, пение, педагогические методы, активность учащихся, эстетическое воспитание.

KIRISH

Bugungi ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat tayyor bilimlarni egallashi emas, balki ularni mustaqil tahlil qila olishi, yangi vaziyatlarda qo'llashi, noodatij yechimlar taklif etishi va ijodiy yondashuv asosida fikrlashi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning shaxsiy, intellektual, emotsional va estetik rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli aynan boshlang'ich sinflarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish keyingi ta'lim bosqichlarida o'quvchining mustaqil o'rganish, muammoli vaziyatlarni hal qilish, muloqotga kirishish va ijodiy faoliyatda qatnashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish, maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, yoshlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanadi ^[1].

Shuningdek, 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturda maktablarda ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning metodik salohiyatini kuchaytirish va o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan ^[2].

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarida esa musiqa madaniyati fani o'quvchilarda estetik did, musiqiy idrok va ijodiy ifoda ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi ko'rsatib o'tilgan ^[3].

Kreativ fikrlash zamonaviy pedagogikada o'quvchining yangi, original va foydali g'oyalarni ilgari surish, mavjud g'oyalarni baholash hamda takomillashtirish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. OECD PISA 2022 kreativ fikrlash doirasida ushbu ko'nikma g'oyalarni yaratish, baholash va yaxshilash bilan bog'liq o'zgaruvchan individual kompetensiya sifatida izohlanadi ^[4]. Bu yondashuv kreativ fikrlash tug'ma iste'dod bilangina cheklanib qolmasdan, ta'lim jarayonida muntazam mashq, muhit va metodik qo'llab-quvvatlash orqali rivojlantirilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Musiqa mashg'ulotlari kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun tabiiy pedagogik maydon hisoblanadi. Chunki musiqa darsida bola tovush, ritm, ohang, harakat, obraz, kayfiyat va tasavvur bilan ishlaydi. Musiqa tinglash jarayonida o'quvchi obraz yaratadi, qo'shiq kuylashda emotsional ifodani boshqaradi, ritmik mashqlarda tana harakati va eshitish idrokini uyg'unlashtiradi, improvizatsiyada esa yangi musiqiy javoblar ishlab chiqadi.

Demak, musiqa mashg'uloti faqat san'atga oid bilim beruvchi fan emas, balki bolaning tafakkuri, tasavvuri, nutqi, emotsional sezgirligi va ijtimoiy hamkorligini rivojlantiruvchi kompleks tarbiyaviy-metodik vositadir.

Mazkur maqolaning obyekti - boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari jarayoni.

Tadqiqot predmeti - musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari.

Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishda musiqiy faoliyat turlarining metodik imkoniyatlarini aniqlash va amaliy model taklif etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- kreativ fikrlash tushunchasining pedagogik mazmunini yoritish;
- musiqa mashg'ulotlarining boshlang'ich sinf o'quvchisi rivojlanishidagi o'rnini tahlil qilish;
- musiqiy improvizatsiya, ritmik mashqlar, tinglash va ijodiy topshiriqlarning metodik ahamiyatini asoslash;
- o'qituvchi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ fikrlash masalasi pedagogika, psixologiya va san'at ta'limi kesishgan nuqtada o'rganiladi. Zamonaviy xalqaro tadqiqotlarda kreativlik o'quvchining real hayotiy vaziyatlarda yangi g'oya yaratishi, muammoga turli tomondan qarashi va mavjud bilimlardan moslashuvchan foydalanishi bilan bog'lanadi.

OECD PISA 2022 kreativ fikrlash modeli uch asosiy jarayonni ajratadi: turli g'oyalarni yaratish, original g'oyalarni yaratish, g'oyalarni baholash va takomillashtirish ^[4]. Ushbu yondashuv boshlang'ich ta'lim uchun ham dolzarbdir, chunki kichik maktab yoshidagi bolalarda qiziqish, tasavvur, o'yin, harakat va emotsional idrok yuqori bo'ladi.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan san'at ta'limi bo'yicha xalqaro hujjatlarda san'at ta'limi shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, madaniy xilma-xillikni anglash, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil sifatida baholanadi ^[5].

Seoul Agenda hujjatida san'at ta'limining sifatini oshirish, undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va san'atni ijtimoiy-madaniy rivojlanish vositasi sifatida qo'llash zarurligi ta'kidlanadi ^[6]. Bu fikrlar musiqa mashg'ulotlarini faqat qo'shiq o'rgatish jarayoni emas, balki kengroq pedagogik rivojlanish maydoni sifatida qarashga asos beradi.



Musiqa ta'limida kreativ fikrlash masalasi bo'yicha M. Hickey va P. Webster muhim nazariy yondashuvni ilgari suradi. Ularning fikricha, musiqa ta'limida bolalarni faqat tayyor musiqiy materialni takrorlashga emas, balki musiqiy fikrlash, musiqiy qaror qabul qilish va ijodiy javob yaratishga yo'naltirish zarur ^[7]. Bu yondashuv boshlang'ich sinflarda o'quvchi faolligini oshirish va musiqa darsini interaktiv ijodiy jarayonga aylantirish imkonini beradi.

Musiqiy improvizatsiyaning bolalar kreativ fikrlashiga ta'siri bir qator empirik tadqiqotlarda ham o'rganilgan. T. Koutsoupidou va D. Hargreaves tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotda improvizatsiyaga boyitilgan musiqa mashg'ulotlari bolalarning musiqiy kreativ fikrlash ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgani qayd etilgan ^[8].

L. Navarro Ramón va H. Chacón-López tadqiqotida esa 8-11 yoshli bolalar bilan olib borilgan musiqiy improvizatsiya mashg'ulotlari kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan ^[9].

Ch. Zhang tadqiqotida musiqiy improvizatsiya bolalarda musiqiy kenglik, moslashuvchanlik, originallik va musiqiy sintaksis kabi ko'rsatkichlarning o'sishiga ta'sir qilishi aniqlangan ^[10].

R. K. Sawyer ijodiy o'qitish jarayonida improvizatsiya va hamkorlik muhim o'rin tutishini asoslaydi. Unga ko'ra, o'qituvchi faoliyati oldindan belgilangan reja va darsdagi jonli ijodiy muloqot o'rtasidagi muvozanatga tayanishi kerak ^[11]. Bu fikr musiqa mashg'ulotlari uchun ayniqsa dolzarbdir: musiqa darsida o'qituvchi qat'iy dasturiy maqsadni saqlagan holda o'quvchilarning spontan javoblari, emotsional reaksiyalari va ijodiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi lozim.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, musiqa mashg'ulotlari orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, boshlang'ich sinflar sharoitida ushbu metodlarni milliy ta'lim mazmuni, o'zbek musiqiy merosi, bolalar yosh xususiyatlari va amaliy dars jarayoni bilan uyg'unlashtirish masalasi alohida ilmiy-metodik yondashuvni talab qiladi. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda musiqa mashg'ulotlari orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari boshlang'ich ta'lim kontekstida tizimlashtirilib, amaliy model shaklida taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega bo'lib, unda boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

Birinchidan, nazariy tahlil metodi asosida kreativ fikrlash, musiqiy kreativlik, san'at ta'limi, musiqiy improvizatsiya va boshlang'ich ta'limga oid ilmiy manbalar o'rganildi. Bu metod mavzuning nazariy asoslarini aniqlash, asosiy tushunchalarni izohlash va tadqiqotning ilmiy yo'nalishini belgilash imkonini berdi.

Ikkinchidan, qiyosiy-pedagogik tahlil metodi orqali xalqaro yondashuvlar va milliy ta'lim talablari solishtirildi. Bunda OECD, UNESCO va O'zbekiston ta'lim siyosatiga oid manbalar asosida kreativ fikrlashni rivojlantirishning umumiy pedagogik tamoyillari ajratib olindi.

Uchinchidan, metodik modellashtirish metodi asosida boshlang'ich sinf musiqa mashg'ulotlarida qo'llash mumkin bo'lgan musiqiy-kreativ faoliyat modeli ishlab chiqildi. Modelda qo'shiq kuylash, ritmik harakat, tinglash, improvizatsiya, savol-javob, guruhli ijodiy topshiriq va refleksiya bosqichlari o'zaro bog'liq jarayon sifatida talqin qilindi.

To'rtinchidan, pedagogik kuzatish va amaliy umumlashtirish yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, darsdagi faolligi, musiqaga emotsional munosabati va ijodiy javob berish imkoniyatlari hisobga olindi.

Tadqiqotda empirik eksperiment natijalari taqdim etilmaydi; maqola asosan nazariy-metodik tahlil va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda musiqa mashg'ulotlarining samaradorligi bir necha pedagogik omillar bilan belgilanadi.

Birinchi omil - **musiqa faoliyatining emotsional tabiati**. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilimni faqat mantiqiy tushuncha orqali emas, balki obraz, sezgi, harakat va hissiyot orqali ham qabul qiladi. Musiqa esa aynan emotsional obrazlar orqali bolaning ichki faolligini uyg'otadi. Masalan, quvnoq kuy, sokin ohang yoki marosim qo'shig'i o'quvchilarda turli tasavvurlarni uyg'otadi va ularni fikr bildirishga undaydi.

Ikkinchi omil - musiqaning ko'p faoliyatli xarakteridir. Musiqa mashg'ulotida o'quvchi bir vaqtning o'zida tinglaydi, kuylaydi, harakat qiladi, ritmni his qiladi, so'zlarni talaffuz qiladi va guruh bilan uyg'unlashadi. Bunday integrativ faoliyat kreativ fikrlashning bir nechta komponentlarini: moslashuvchanlik, originallik, tafakkur tezligi, emotsional ifoda va kommunikativ faollikni rivojlantiradi.

Uchinchi omil - musiqiy improvizatsiya imkoniyatidir. Improvizatsiya o'quvchidan tayyor javobni takrorlashni emas, balki yangi javob yaratishni talab qiladi. Masalan, o'qituvchi qisqa ritmik namunani chaladi va o'quvchilardan unga javob ritmini yaratishni so'raydi. Yoki o'quvchilarga "bahor yomg'iri", "qushlar parvozi", "shodlik kayfiyati" kabi obrazlar berilib, ularni ovoz, harakat yoki cholg'u tovushi orqali ifodalash topshiriladi. Bunday mashqlar o'quvchilarda obrazli fikrlash, assotsiativ tasavvur va ijodiy javob berish ko'nikmalarini kuchaytiradi.

To'rtinchi omil - musiqiy tinglash jarayonida savol berish madaniyatidir. Odatda musiqa tinglashda o'quvchidan "kuy yoqdimi?" yoki "bu qanday qo'shiq?" kabi oddiy javoblar olinadi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun savollar ochiq, izlanishga undovchi va ko'p javobli bo'lishi kerak. Masalan: "Bu kuy qaysi rangga o'xshaydi?", "Agar bu musiqa ertak qahramoni bo'lsa, u qanday xarakterga ega bo'lardi?", "Kuy davom etsa, keyin qanday hodisa yuz berishi mumkin?" kabi savollar o'quvchini musiqiy obrazni erkin talqin qilishga yo'naltiradi.

Beshinchi omil - guruhli ijodiy topshiriqlardir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari guruhda ishlash orqali bir-birining g'oyalari eshitadi, solishtiradi, davom ettiradi va takomillashtiradi. Bu jarayon OECD tomonidan kreativ fikrlash tarkibida ajratilgan g'oyalarni baholash va yaxshilash kompetensiyasi bilan bevosita bog'liqdir^[4]. Guruhli topshiriqlarda o'quvchilar kichik jamoalarda qo'shiq uchun harakatlar yaratishi, ritmik kompozitsiya tuzishi yoki eshutilgan musiqaga mos hikoya o'ylab topishi mumkin.

1-jadval: Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari

Metod	Mazmuni	Rivojlantiriladigan kreativ ko'nikma	Amaliy topshiriq namunasi
Musiqiy tinglash va obrazli talqin	Kuy mazmunini his qilish va obraz yaratish	Tasavvur, assotsiativ fikrlash	"Bu kuy qaysi faslni eslatadi?"
Ritmik javob metodi	Berilgan ritmga yangi ritmik javob yaratish	Moslashuvchanlik, tezkor fikrlash	O'qituvchi ritm chaladi, o'quvchi javob ritmini yaratadi
Improvizatsiya	Ovoz, harakat yoki cholg'u orqali erkin ijodiy javob berish	Originallik, ijodiy ifoda	"Yomg'ir tovushini ritm bilan ifodalang"
Qo'shiqni ijodiy davom ettirish	Qo'shiq matni yoki ohangiga yangi qator, harakat qo'shish	G'oya yaratish, nutqiy-musiqiy ijod	Qo'shiq uchun yangi band yoki harakat o'ylash
Guruhli musiqiy loyiha	Jamoada kichik musiqiy sahna yaratish	Hamkorlik, baholash, takomillashtirish	"Tabiat tovushlari" nomli mini-kompozitsiya yaratish
Refleksiya	O'quvchining o'z ijodiy faoliyatini izohlashi	O'zini baholash, tanqidiy fikrlash	"Mening ritmim nimani ifodaladi?"

Manba: muallif ishlanmasi.


Jadvaldan ko'rinadiki, musiqa mashg'ulotlarida kreativ fikrlashni rivojlantirish faqat bitta metod bilan cheklanmaydi. U tinglash, kuylash, harakat, ritm, improvizatsiya, jamoaviy faoliyat va refleksiyani birlashtirgan holda samarali natija beradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda har bir topshiriq o'yin elementlari bilan uyg'unlashsa, o'quvchining darsdagi faolligi ortadi.

Musiqiy-kreativ faoliyatni tashkil etishda o'qituvchi quyidagi metodik tamoyillarga amal qilishi lozim.

Birinchi tamoyil - erkin va xavfsiz ijodiy muhit yaratish. Bola o'z javobi "noto'g'ri" deb baholanishidan qo'rqmasa, erkin fikr bildiradi. Musiqa darsida har bir o'quvchining ritmik, vokal yoki harakatli javobi qadrlanishi kerak.

Ikkinchi tamoyil - topshiriqlarning yosh xususiyatlariga mosligi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun murakkab nazariy izohdan ko'ra obrazli savol, harakatli mashq va qisqa ijodiy topshiriq samaraliroqdir.

Uchinchi tamoyil - milliy musiqiy merosdan foydalanish. O'zbek xalq qo'shiqlari, bolalar qo'shiqlari, lapar, alla, marosim kuylaridan foydalanish o'quvchining milliy qadriyatlarga qiziqishini kuchaytiradi va kreativ fikrlashni madaniy kontekst bilan bog'laydi.



1-chizma: **Musiqi mashg'ulotlarida kreativ fikrlashni rivojlantirish modeli**

Manba: muallif ishlanmasi.

Mazkur modelda kreativ fikrlash bosqichma-bosqich rivojlanadi. Avval o'quvchi musiqani eshitadi va uni emotsional qabul qiladi. Keyin obraz yaratadi, savollarga javob beradi, o'z ritmik yoki harakatli javobini ishlab chiqadi. Shundan so'ng guruh bilan birgalikda ijodiy mahsulot yaratadi va yakunda o'z faoliyatini izohlaydi. Bu jarayon o'quvchining faqat musiqiy emas, balki umumiy kognitiv va kommunikativ rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Musiqi mashg'ulotlarida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi amaliy metodlar ayniqsa muhimdir.

Birinchi metod - "Tovushdan obrazga" metodi. Bunda o'qituvchi turli tovushlar yoki qisqa kuy parchalarini eshittiradi. O'quvchilar bu tovush qanday obrazni eslatishini aytadilar: yomg'ir, shamol, qush, qadam tovushi, bayram, tabiat manzarasi va boshqalar. Keyin o'quvchilar shu obrazni ovoz, harakat yoki chizma orqali ifodalaydi. Bu metod musiqiy idrok, tasavvur va obrazli fikrlashni rivojlantiradi.

Ikkinchi metod - "Ritmik savol-javob" metodi. O'qituvchi qo'l chapak, baraban yoki parta ustida qisqa ritmik savol beradi, o'quvchilar esa unga boshqa ritm bilan javob qaytaradilar. Bunda bolalar ritmni eshinish, takrorlash, o'zgartirish va yangi shakl yaratishga o'rganadi. Bu metod kreativ fikrlashning moslashuvchanlik va tezkorlik komponentlarini rivojlantiradi.

Uchinchi metod - "Qo'shiqni ijodiy davom ettirish". O'quvchilar tanish bolalar qo'shiqining bir qatorini yoki ohangini davom ettiradilar. Masalan, o'qituvchi qo'shiqning birinchi misrasini kuylaydi, o'quvchilar esa unga mos yangi harakat yoki yangi so'z birikmasini taklif qiladi. Bu metod musiqiy ijodkorlik bilan nutqiy faollikni birlashtiradi.

To'rtinchi metod - "Musiqiy hikoya yaratish". O'quvchilarga qisqa kuy eshittiriladi va ular shu kuy asosida kichik hikoya tuzadilar. Bir guruh hikoyani so'z bilan, ikkinchi guruh harakat bilan, uchinchi guruh esa ritmik tovushlar bilan ifodalaydi. Bu metod integrativ xarakterga ega bo'lib, musiqi, nutq, tasviriy tasavvur va sahnalashtirish elementlarini birlashtiradi.

Beshinchi metod - "Erkin improvizatsiya burchagi". Sinfda oddiy cholg'ular - doira, qoshiq, qo'ng'iroqcha, baraban yoki qo'lbola tovush manbalari bo'lishi mumkin. O'quvchilar kichik guruhda "bahor", "quvonch", "sayohat", "ertak" kabi mavzular asosida 1-2 daqiqalik tovush kompozitsiyasi yaratadilar. Bu topshiriq bolalarning originallik, jamoada ishlash va g'oyani ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'qituvchi bunday metodlarni qo'llashda baholash mezonlarini ham to'g'ri belgilashi lozim. Kreativ faoliyatni baholashda faqat "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" javob emas, balki o'quvchining faolligi, yangi g'oya taklif qilishi, obrazni ifodalashi, guruh bilan ishlashi va o'z fikrini tushuntirishi e'tiborga olinadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda kreativ fikrlashni baholashda rag'batlantiruvchi, tavsiflovchi va rivojlantiruvchi baholash samarali hisoblanadi.

2-jadval: Musiqa mashg'ulotlarida kreativ fikrlashni baholash mezonlari

Mezon	Yuqori daraja	O'rta daraja	Boshlang'ich daraja
G'oya yaratish	Mustaqil va original g'oya taklif qiladi	O'qituvchi yordamida g'oya bildiradi	Tayyor namunani takrorlaydi
Musiqiy ifoda	Ritm, ovoz yoki harakat orqali obrazni aniq ifodalaydi	Obrazni qisman ifodalaydi	Ifoda qilishda qiynaladi
Moslashuvchanlik	Bir nechta yechim taklif qiladi	Bitta yechim bilan cheklanadi	Yechimni o'qituvchi ko'magida topadi
Hamkorlik	Guruh g'oyasini boyitadi va boshqalarni tinglaydi	Guruh ishida qatnashadi	Passiv ishtirok etadi
Refleksiya	O'z ijodiy tanlovini tushuntira oladi	Qisqa izoh bera oladi	Izoh berishda qiynaladi

Manba: muallif ishlanmasi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, musiqa mashg'ulotlarida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun darsni reproduktiv, ya'ni faqat kuyni takrorlashga asoslangan shaklda emas, balki faol, interaktiv va ijodiy jarayon sifatida tashkil etish zarur. O'quvchi musiqa darsida ijrochi, tinglovchi, talqin qiluvchi, yaratuvchi va baholovchi sifatida qatnashganda, uning kreativ fikrlash ko'nikmalari izchil rivojlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Musiqa bolani tovush, ritm, obraz, harakat va emotsional ifoda orqali faol fikrlashga undaydi. Shu jihatdan musiqa darsi nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlash, kommunikativ faollik va ijtimoiy hamkorlikni shakllantiruvchi muhim ta'limiy maydon hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun musiqa mashg'ulotlarida tinglash, ritmik mashqlar, musiqiy savol-javob, improvizatsiya, qo'shiqni ijodiy davom ettirish, musiqiy hikoya yaratish va guruhli ijodiy loyihalardan tizimli foydalanish zarur. Bunday metodlar o'quvchilarda g'oya yaratish, originallik, moslashuvchanlik, emotsional ifoda, baholash va takomillashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Maqola doirasida taklif etilgan musiqiy-kreativ faoliyat modeli boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun amaliy metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Modelning asosiy afzalligi shundaki, u musiqa tinglashdan boshlanib, obraz yaratish, ritmik harakat, improvizatsiya, guruhli topshiriq va refleksiya bosqichlarini o'zaro bog'laydi. Bu esa darsni oddiy ijro jarayonidan ijodiy o'rganish jarayoniga aylantiradi.

Amaliy takliflar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Boshlang'ich sinf musiqa darslarida har bir mavzu bo'yicha kamida bitta ijodiy topshiriq kiritilishi lozim.
2. O'quvchilarga musiqani erkin talqin qilish, obraz yaratish va o'z fikrini bildirish imkoniyati berilishi kerak.
3. Ritmik savol-javob, musiqiy improvizatsiya va guruhli kompozitsiya yaratish mashqlari darsning muntazam elementi sifatida qo'llanishi maqsadga muvofiq.
4. Baholash jarayonida faqat to'g'ri ijro emas, balki o'quvchining ijodiy tashabbusi, originalligi, hamkorlikdagi ishtiroki va o'z fikrini izohlashi ham inobatga olinishi zarur.
5. Musiqa mashg'ulotlarida o'zbek xalq qo'shiqlari, milliy kuylar va bolalar folklori materiallaridan foydalanish kreativ fikrlashni milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda rivojlantirishga xizmat qiladi.
6. Musiqa o'qituvchilari uchun kreativ pedagogika, musiqiy improvizatsiya va integrativ san'at ta'limi bo'yicha metodik seminarlar tashkil etish foydali bo'ladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu metodik modelni amaliy tajriba-sinovdan o'tkazish, boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ fikrlash darajasidagi o'zgarishlarni diagnostik mezonlar asosida o'lchash va turli yosh guruhlari bo'yicha qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, musiqa mashg'ulotlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun samarali, tabiiy va tarbiyaviy jihatdan boy pedagogik vosita hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni. 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-6008663>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. <https://lex.uz/ru/docs/-3153714>
4. OECD. PISA 2022 Results, Volume III: Creative Minds, Creative Schools. OECD Publishing, 2024. <https://doi.org/10.1787/765ee8c2-en>
5. OECD. PISA 2022 Creative Thinking Framework. OECD, 2024. https://www.oecd.org/en/publications/pisa-2022-results-volume-iii_765ee8c2-en/full-report/component-15.html
6. UNESCO. Road Map for Arts Education: Building Creative Capacities for the 21st Century. Lisbon: UNESCO, 2006. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000384200>
7. UNESCO. Seoul Agenda: Goals for the Development of Arts Education. Seoul: UNESCO, 2010. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000190692>
8. Hickey, M., Webster, P. R. Creative Thinking in Music. *Music Educators Journal*, 2001, 88(1), 19–23. <https://doi.org/10.2307/3399772>
9. Koutsoupidou, T., Hargreaves, D. J. An experimental study of the effects of improvisation on the development of children's creative thinking in music. *Psychology of Music*, 2009, 37(3), 251–278. <https://doi.org/10.1177/0305735608097246>
10. Navarro Ramón, L., Chacón-López, H. The impact of musical improvisation on children's creative thinking. *Thinking Skills and Creativity*, 2021, Vol. 40, 100839. <https://doi.org/10.1016/j.tsc.2021.100839>
11. Zhang, C. The role of musical improvisation in the development of creative thinking in children. *Culture and Education*, 2023, 35(3), 535–561. <https://doi.org/10.1080/11356405.2023.2200528>
12. Sawyer, R. K. Creative Teaching: Collaborative Discussion as Disciplined Improvisation. *Educational Researcher*, 2004, 33(2), 12-20. <https://doi.org/10.3102/0013189X033002012>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.